

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI: SIYOSIY, MADANIY VA ILMIY YUKSALISH

**Umida Inayatova Yigitali qizi**

*Navoiy innavatsiyalar inistuti maktabgacha yo'nalishi 503- guruh talabasi  
umedainoyatova8@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davri (XIV asr ikkinchi yarmi – XV asr) siyosiy, madaniy va ilmiy jihatdan keng ko'lamda o'rganildi. Mazkur davrda Movarounnahr va Xuroson hududlarida markazlashgan qudratli davlat barpo etildi, ilm-fan, me'morchilik va adabiyot misli ko'rilmagan darajada yuksaldi. Maqolada Sohibqironning davlat boshqaruvidagi siyosati, Temuriylar sulolasining madaniy merosi, Samarqand va Hirotning jahon tamaddunidagi o'rni, shuningdek, ilmiy maktablar faoliyati nazariy manbalarga asoslanib bayon etildi. Temuriylar davrining o'ziga xos xususiyatlari va bu davrning Sharq tarixidagi ahamiyati atroflicha yoritildi.*

**Kalit so'zlar:** *Amir Temur, Temuriylar, Movarounnahr, Samarqand, davlat boshqaruvi, ilm-fan, me'morchilik, madaniy yuksalish, Ulug'bek, Alisher Navoiy.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается эпоха Амира Темура и Тимуридов (вторая половина XIV — XV век) с точки зрения политического, культурного и научного развития. В этот период на территории Мавераннахра и Хорасана было создано мощное централизованное государство, а наука, архитектура и литература достигли небывалого расцвета. В статье на основе теоретических источников освещается государственная политика Сахибкирана, культурное наследие династии Тимуридов, роль Самарканда и Герата в мировой цивилизации, а также деятельность научных школ того времени. Подробно рассмотрены характерные особенности эпохи Тимуридов и её значение в истории Востока.*

**Ключевые слова:** *Амир Темур, Тимуриды, Мавераннахр, Самарканд, государственное управление, наука, архитектура, культурный расцвет, Улугбек, Алишер Навои.*

**Abstract:** *This article provides a comprehensive analysis of the era of Amir Temur and the Timurids (second half of the 14th century – 15th century) from political, cultural, and scientific perspectives. During this period, a powerful centralized state was established in the territories of Mawarannahr and Khorasan, and science, architecture, and literature flourished to an unprecedented degree. Based on theoretical sources, the article examines the state governance policy of the Sahibqiran, the cultural heritage of the Timurid dynasty, the role of Samarkand and Herat in world civilization, as well as the activities of scientific schools of the*

*time. The distinctive features of the Timurid era and its significance in the history of the East are thoroughly discussed.*

**Keywords:** Amir Temur, Timurids, Mawarannahr, Samarkand, state governance, science, architecture, cultural flourishing, Ulugbek, Alisher Navoiy.

### **Kirish**

Zamonaviy tarix fani va ijtimoiy-falsafiy tafakkurda o'tmish davlatchiligi, madaniy merosi va ilmiy yutuqlarini yangicha nazariy yondashuvlar asosida qayta o'rganish dolzarb ilmiy vazifalar qatorida mustahkam o'rin egallaydi. Globallashuv jarayonlari va zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyoti sharoitida milliy tarix va madaniy merosni chuqur tadqiq etish nafaqat ilmiy, balki ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'rta asrlar Sharq tarixida alohida o'rin tutuvchi Amir Temur va Temuriylar davrini atroflicha o'rganish bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

XIV asrning ikkinchi yarmi Movarounnahr hududi uchun og'ir bir sinov davri edi. Mamlakat o'nga yaqin mustaqil beklklarga bo'linib, ichki nizolar va siyosiy parokandalik avjiga chiqqan, tashqi tahdidlar esa tobora kuchayib borar edi. Mo'g'ul xonlarining Movarounnahrda bo'lgan da'volari kuchayib, markaziy hokimiyat zaiflashgan bir paytda yurt taqdiri hal bo'luvchi bir burilish nuqtasida turgan edi. Aynan shu sharoitda Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir tarixiy sahnaga chiqdi va o'zining harbiy dahosi, siyosiy irodasi hamda boshqaruv mahorati bilan tarqoq hududlarni yagona qudratli davlat atrofida birlashtirdi. 1370-yilning 11-aprelida u rasman Movarounnahr amiri deb e'lon qilindi va shundan boshlab Temuriylar saltanatining ulkan tarixi boshlandi.

Amir Temur 1336-yilning 9-aprelida Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topdi. Uning otasi Amir Tarag'ay bahodir Barlos urug'ining nufuzli beklaridan biri bo'lib, ota-bobolari Kesh viloyatida hokimlik qilib kelishgan edi. Yoshligidan davlat boshqaruvi va harbiy san'atni puxta egallagan Temur o'z zamonasining eng yirik siyosiy va harbiy arboblardan biriga aylandi. Uning faoliyati nafaqat Movarounnahr, balki butun Sharq tarixida chuqur iz qoldirdi.

Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davri siyosiy tizimi, madaniy merosi, ilm-fan va adabiyot rivoji hamda iqtisodiy hayoti nazariy manbalarga asoslanib yoritildi. Tadqiqot jarayonida bu davrning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi va uning Sharq hamda jahon tamaddunidagi o'rni atroflicha bayon etildi. Shu orqali Temuriylar davri nafaqat harbiy yurishlar davri, balki insoniyat tarixiga o'chmas madaniy va ilmiy iz qoldirgan yuksalish davri sifatida qayta talqin etildi va bu talqin yangi nazariy manbalarga tayanib mustahkamlandi.

Natija va muhokama

Dunyo ilm-fanida yirik davlatchilik an'analari, madaniy yuksalish va ilmiy taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari azaldan tarixiy tafakkurning eng muhim muammolari sifatida qaralib kelinadi. Ushbu masalalar nafaqat nazariy-falsafiy doirada, balki tarixiy jarayonlar va yirik tarixiy shaxslar faoliyatida ham o'zining real ifodasini topgan. Ayniqsa, XIV–XV asrlar Movarounnahr va Xuroson hududlarida hukm surgan Temuriylar sulolasi davri bunday murakkab tarixiy jarayonlarni o'zida mujassamlashtirgan davr sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu davrni siyosiy, madaniy va ilmiy jihatdan yaxlit ko'lamda tahlil qilish nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-madaniy jihatdan ham muhim ilmiy xulosalarga olib keladi.

Avvalo, Amir Temur barpo etgan davlatning siyosiy tizimi o'sha davr uchun o'ziga xos ilg'or xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan edi. Sohibqiron o'zi tuzgan "Tuzuklar" asarida davlat boshqaruvining asosiy tamoyillarini batafsil bayon etdi. Unda adolat, qonun ustuvorligi va xalq farovonligiga alohida urg'u berildi. Davlat boshqaruvida harbiy va fuqarolik ma'muriyati bir-biridan aniq farqlandi, viloyatlar hokimlari markazga to'g'ridan to'g'ri hisobot berdi. Bu boshqaruv tizimi mamlakat ichki barqarorligining muhim kafolati bo'lib xizmat qildi. "Tuzuklar"da bayon etilgan tamoyillar nafaqat Temur davri uchun, balki keyingi avlod hukmdorlari uchun ham boshqaruv qo'llanmasi sifatida xizmat qildi. Xususan, unda adolatning davlat boshqaruvida tutgan o'rni, lashkarboshilik san'ati, elchilik munosabatlari va xalq turmush farovonligini ta'minlashga doir qoidalar batafsil yoritilgan.

Harbiy qurilish sohasida ham Amir Temur o'ziga xos yangi tizim yaratdi. Qo'shin o'nlik, yuzlik, minglik va tumanliklarga bo'linib, har bir bo'linma o'z boshlig'iga ega edi. Bundan tashqari, Amir Temur qo'shinida ko'chmanchi otliq askarlar bilan birga o'troq aholidan — hunarmandlar va dehqonlardan ham yollanma askarlar xizmat qildi. Bu o'sha davr uchun sezilarli yangilik edi, chunki Chingizxon davrida qo'shinning asosini faqat ko'chmanchilar tashkil etgan edi. Harbiy tizimning bunday tarzda tashkil etilishi Temuriylar saltanatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlagan muhim omillardan biri bo'ldi. Shu bilan birga, yangi turdagi qurol-aslaha va harbiy texnikadan keng foydalanilishi ham qo'shinning jangovar qudratini yanada oshirib, Sohibqironning ko'plab harbiy yurishlarida g'alaba qozonishiga zamin yaratdi.

Diplomatiya sohasida ham Sohibqiron o'z davrining mohir siyosatchilaridan biri sifatida tan olindi. U Fransiya, Ispaniya, Genuya va Venetsiya kabi davlatlar bilan elchilik munosabatlarini yo'lga qo'ydi. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'zining sayohat kundaligida Samarqandning hayratlanarli me'moriy go'zalligi, shahar hayotining farovonligi va Amir Temur saltanatining ulkan qudratini batafsil tasvirlab qoldirdi. Bu manbalar Temuriylar davrini xorijiy ko'zlar orqali baholash imkonini beruvchi bebaho tarixiy hujjatlar sifatida qadrlanadi. Klavixo o'z kundaligida Samarqanddagi hunarmandlar, savdogarlar va turli xalqlarning uyg'un birga

yashashi haqida alohida to'xtalib, bu shaharni o'sha davr dunyosining eng go'zal va farovon shaharlaridan biri sifatida ta'riflagan. Amir Temurning diplomatik faoliyati shuni ko'rsatadiki, u nafaqat kuch ishlatib, balki muzokaralar va elchilik munosabatlari orqali ham siyosiy maqsadlariga erishishga intilgan.

Temuriylar davri madaniy taraqqiyoti alohida tadqiqotni taqozo etuvchi keng va serqirra mavzu hisoblanadi. Amir Temur madaniyatni davlat siyosatining ajralmas bir qismiga aylantirdi. U zabt etgan mamlakatlarning eng mohir me'morlari, hunarmandlari va olimlarini poytaxt Samarqandga ko'chirdi. Natijada Samarqand o'rta asrlar dunyosining madaniy va ma'rifiy markazlaridan biriga aylandi. Shahar masjidlari, madrasalari, bozorlari va bog'lari bilan o'sha davrning eng ko'rkam shaharlaridan biri sifatida jahon elchilarini hayratda qoldirgan. Bu davrda qurilgan Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasi, Oqsaroy va Gur Amir maqbarasi me'morchilik san'atining betakror namunalari sifatida bugungi kunda ham hayrat uyg'otadi. Ushbu me'moriy obidalar nafaqat estetik jihatdan, balki muhandislik va qurilish texnologiyalari nuqtai nazaridan ham o'z davrining eng yuqori darajasini namoyish etadi.

Amaliy san'at sohasida ham yuksalish yaqqol ko'zga tashlandi. To'qimachilik, gilamdo'zlik va kashtachilik san'at darajasiga ko'tarildi. Kulolchilik buyumlarida yangi bezak uslublari vujudga keldi — zangori va yashil sir ustiga kobalt bilan chizilgan naqshlar bu davrga xos o'ziga xos uslubni belgiladi. Miniaturaga san'ati ham rivojlanib, kitob bezatish san'ati yangi bosqichga qadam qo'ydi. Temuriylar davrida yaratilgan miniatyuralar o'sha zamonning ijtimoiy hayotini, saroy turmushini va tabiatning go'zalligini aks ettiruvchi noyob tasviriy manba sifatida bugungi kunda dunyoning ko'plab kutubxona va muzeylarida saqlanmoqda.

Ilm-fan sohasida Temuriylar davri o'ziga xos oltin bosqichni tashkil etadi. Amir Temur o'zi ham olimlar bilan ilmiy bahslar o'tkazishni yaxshi ko'rardi va ilm-fan rivojiga homiylik qildi. Uning tashabbusi va ko'magida mashhur olimlar Samarqandga keldi, shular jumlasida Sa'duddin Taftazoniy va Sayyid Sharif Jurjoniy kabi qomusiy bilimli mutafakkirlar ham bor edi. Sa'duddin Taftazoniy Samarqanddagi Idigu Temur madrasasida mudarris sifatida faoliyat ko'rsatdi va o'z ilmiy merosini bu yerda yaratdi. Jurjoniy esa bir necha yil Ulug'bekka ustozlik qildi va Samarqand akademiyasining tashkil topishiga muhim hissa qo'shdi.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida (1409–1449) Samarqandda birinchi Akademiyaga asos solindi. Bu ilmiy maktabda ikki yuzdan ortiq olim Ulug'bek rahbarligida fanning turli sohalari bo'yicha chuqur izlanishlar olib bordi. Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi kabi olimlar astronomiya, matematika va geografiya sohasida jahon fani uchun muhim kashfiyotlar amalga oshirdi. Samarqand rasadxonasining bunyod etilishi esa o'sha davr uchun ulkan ilmiy yutuq bo'ldi — uning jihozi va ilmiy natijalari jihatidan tengdoshi yo'q edi. Ulug'bekning "Zij — Yulduzlar jadvali" asari esa astronomiya fanining o'sha

davrdagi eng yuksak namunasi sifatida Yevropa va Sharq olimlariga ko'p asrlar davomida manba bo'lib xizmat qildi. Bu asarda mingdan ortiq yulduzning holati aniq o'lchab qayd etildi va shu orqali o'rta asr astronomiyasida yangi sahifa ochildi.

Tarix ilmda Sharofiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro', Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va Xondamir kabi tarixnavislar o'z davrining muhim va qimmatli manbalarini yaratdi. Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari Amir Temur hayoti va faoliyatini eng to'liq yoritgan tarixiy manba sifatida tan olinadi. Bu asar Temuriylar saltanatining siyosiy va ijtimoiy qiyofasini keng ko'lamda aks ettiradi hamda keyingi avlodlar uchun muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. "Zafarnoma"da Amir Temurning uch, besh va yetti yillik harbiy yurishlarining sabablari, borishati va natijalari batafsil yoritilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' as-sa'dayn va majma' al-bahrayn" asari esa Temuriylar davrining XV asrdagi siyosiy va madaniy hayotini keng ko'lamda qamrab oluvchi bebaho manba sifatida qadrlanadi.

Adabiyot sohasida esa Temuriylar davri o'zbek adabiyotining eng yuksak bosqichi sifatida baholanadi. Bu davrda Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Durbek va Haydar Xorazmiy kabi shoir va adiblar o'zbek adabiyotini yangi cho'qqilarga ko'tardi. Alisher Navoiy ijodi esa butun bir davrning ma'naviy timsoliga aylandi. Uning "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub" va boshqa asarlari o'zbek tilining adabiy til sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Navoiy o'z asarlari orqali nafaqat o'zbek, balki butun Sharq adabiyoti xazinasini boyitdi. Hirotida kuchli adabiy va ilmiy muhit vujudga keldi. Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Hirot adabiyot va san'atning yirik markaziga aylandi. Samarqand va Hirot o'sha davrning ikki buyuk madaniy markazi sifatida bir-birini to'ldirib, Sharq tamaddunining ravnaqiga ulkan hissa qo'shdi.

Temuriylar davri iqtisodiy hayoti ham o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Bu davrda ichki va tashqi savdo, Sharq va G'arb mamlakatlari bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalar keng yo'lga qo'yildi. Buyuk Ipak yo'li bo'ylab savdo karvonlarining erkin harakatlanishi ta'minlandi, savdo yo'llarining xavfsizligi esa davlat nazorati ostida tutildi. Sug'orma dehqonchilik rivojlandi, yangi yerlar o'zlashtirildi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rag'batlantirildi. Pul muomalasi tartibga solinib, soliq tizimi yangilandi. Mamlakat ichida qurilgan karvonsaroylar va ko'priklar savdoning rivojlanishiga muhim zamin yaratdi. Bu iqtisodiy siyosat natijasida mamlakat aholi farovonligi sezilarli darajada oshdi va shaharlar tobora gullab-yashnadi. Samarqand bozorlarida Sharqning turli burchaklaridan keltirilgan mollar savdosi yuqori darajada olib borildi, bu esa Temuriylar davridagi iqtisodiy faollikning yorqin dalili sifatida tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Umumiy qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davri O'rta Osiyo va butun Sharq xalqlari tarixida siyosiy, madaniy va ilmiy jihatdan beqiyos yuksalish davri sifatida baholanadi. Bu davrda markazlashgan qudratli davlat barpo etildi, siyosiy

boshqaruvda tartib va adolat tamoyillari ustuvor tutildi, madaniyat va ilm-fan o'zining oltin asrini boshidan kechirdi. Samarqand va Hirot shaharlari Sharqning madaniy markazlariga aylanib, jahon tamadduniga munosib va o'lmas hissa qo'shdi. Ulug'bek akademiyasi, Samarqand rasadxonasi, "Zafarnoma" va Alisher Navoiyning buyuk adabiy merosi — bularning barchasi Temuriylar davrining insoniyat tarixiga qo'shgan o'chmas ulushi sifatida bugun ham o'z qadrini saqlaydi. Ushbu davrni chuqur o'rganish nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki milliy o'zlikni anglash va davlatchilik an'alarini qadrlash borasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur mavzuning nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-madaniy jihatdan ham yuksak ilmiy ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Amir Temur — o'zbek xalqining buyuk farzandi. — Toshkent: O'zbekiston, 1996. — 32-bet.
2. Manz B.F. The Rise and Rule of Tamerlane. — Cambridge: Cambridge University Press, 1989. — 278-bet.
3. Amir Temur. Tuzuklar (Temur tuzuklari). — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. — 174-bet.
4. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. — Toshkent: Fan, 1994. — 189-bet.
5. Klavixov R.G. de. Samarqandga sayohat kundaligi. — Toshkent: O'zbekiston, 1990. — 270-bet.
6. Pugachenkova G.A. Iskusstvo Afganistana. — Moskva: Iskusstvo, 1963. — 248-bet.
7. Akimushkin O.F., Ivanov A.A. Persidskie miniatyury XIV–XVII vekov. — Moskva: Iskusstvo, 1968. — 160-bet.
8. Valixojayev B. Sa'duddin Taftazoniy va uning ilmiy merosi. — Toshkent: Fan, 1994. — 136-bet.
9. Ahmedov B. Ulug'bek. — Toshkent: Fan, 1989. — 248-bet.
10. Ulug'bek Mirzo. Zij — Yangi Ko'ragoniy jadvallar. — Toshkent: Fan, 1994. — 320-bet.
11. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. — Toshkent: O'zbekiston, 1997. — 480-bet.
12. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla' as-sa'dayn va majma' al-bahrayn. — Toshkent: Fan, 2008. — 540-bet.
13. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. — Toshkent: Fan, 1961. — 204-bet.
14. Bartold V.V. Ulug'bek va uning davri. — Toshkent: Fan, 1993. — 190-bet.